



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-dekabr

769-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi yil bayramini nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunni belgilash va dam olish kunini ko‘chirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrdaqi PQ-452-sonli qarori ijrosi haqida”gi 617-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi yil bayramini nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunni belgilash va dam olish kunini ko‘chirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrdaqi PQ-452-sonli qarori ijrosi haqida”gi 617-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹ -moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi yil bayramini nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunni belgilash va dam olish kunini ko‘chirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrdaqi PQ-452-sonli qarori ijrosi haqida”gi 617-6-0-Q/24-sonli qarori asos va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrdaqi “2024-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida”gi PF-213-sonli Farmoni bilan 2024-yil 30-31-dekabr kunlari dam olish kunlari sifatida belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

2025-yilda besh kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun dam olish kuni 4-yanvar – shanba kundan 2-yanvar – payshanba kuniga ko‘chirilganligi hamda olti kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun 2-yanvar – payshanba qo‘shimcha dam olish kuni etib belgilanganligi e‘tiborga olinsin.

3. Namangan viloyati hokimining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi (X.Xojayev)ga:: mehnat jamoalari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdaqi PQ-452-sonli qarorining maqsadi, mazmun-mohiyati to‘g‘risida tushuntirish ishlarini tashkil etishi; Yangi yil bayrami uchun belgilangan dam olish kunlarida xodimlar va ularning oila a‘zolari maroqli dam olishini ta‘minlash yuzasidan kasaba ushmalari tashkilotlarining ishini faollashtirish tavsiya etilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining axborot xizmati (Sh.KenjayeV), "Mingbuloq" gazetasi (Q.Akbarov) bilan birgalikda Yangi yil bayrami uchun belgilangan dam olish kunlarida o'tkaziladigan tadbirlar to'g'risida ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'i orqali aholining keng xabardor qilinishini ta'minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov